

## MARKAZIY OSIYO YURISDIKTSIYALARIDA XALQARO ARBITRAJ TENDENTSIYALARI

*Norahmatov Lazizxon Hamzaxon o'g'li*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti talabarlari*  
[lazizxonnorahmatov@gmail.com](mailto:lazizxonnorahmatov@gmail.com)

### Аннотация

This is in the article Central of Asia international arbitration in the field trends, international arbitration according to region centers, main attention focus need has been fields and in its main problems consistent analysis done

International on the field economic indicators and development trends according to previous in places going Central in Asia disputes solution of doing alternative to the roads Demand is increasing. And this in the region arbitration centers organize to be done take is coming of the region main leaders have been Uzbekistan and Kazakhstan and Kyrgyzstan this about much previous in places stands

But relatively young and developing from the republics organize found Central Asia in the states another fields such as this quite a lot in the field problems there is. An example of Kyrgyzstan is a WTO member to be despite the economy's significant growth not observed. This is also the case in Kazakhstan in the field one how many problems there are. This is the article that's it and another problem and their analysis given.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro Arbitraj, Arbitraj markazi, Markaziy Osiyo, JST, TIAC, KIAC, UNICITRAL, hakamlik sudlari, asosiy tendensiyalar.

## ТЕНДЕНЦИИ МЕЖДУНАРОДНОГО АРБИТРАЖА В ЮРИСДИКЦИЯХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Студенты Ташкентского государственного юридического университета

Норахматов Лазизхан Хамзахан оглы

[lazizxonnorahmatov@gmail.com](mailto:lazizxonnorahmatov@gmail.com)

### Аннотация

В данной статье последовательно анализируются тенденции в сфере международного арбитража Центральной Азии, региональные центры международного арбитража, направления, на которых следует сосредоточить внимание и основные проблемы в нем.

В Центральной Азии, которая лидирует на международной арене по экономическим показателям и тенденциям развития, растет спрос на альтернативные способы разрешения конфликтов. Это приводит к созданию

арбитражных центров в регионе. На передовой позиции в этом плане находятся Узбекистан, Казахстан и Кыргызстан, являющиеся основными лидерами региона.

Но в странах Центральной Азии, которые являются относительно молодыми и развивающимися республиками, существует множество проблем в этой сфере, как и в других сферах. Например, несмотря на то, что Кыргызстан является членом ВТО, существенного роста в его экономике не произошло. У Казахстана также есть ряд проблем в этой сфере. В данной статье представлены эти и другие вопросы и их подробный анализ.

**Ключевые слова:** Международный арбитраж, Арбитражный центр, Центральная Азия, ВТО, ТИАС, КИАС, UNICITRAL, арбитражные суды, основные тенденции.

## INTERNATIONAL ARBITRATION TRENDS IN CENTRAL ASIAN JURISDICTIONS

---

Students of Tashkent State Law University  
Norakhmatov Lazizkhan Khamkhan ogly  
[lazixonnorahmatov@gmail.com](mailto:lazixonnorahmatov@gmail.com)

### ABSTRACT

In this article, the trends in the field of international arbitration of Central Asia, regional centers for international arbitration, the areas that should be focused on and the main problems in it are consistently analyzed.

Demand for alternative ways of conflict resolution is increasing in Central Asia, which is leading the international arena in terms of economic indicators and development trends. This leads to the establishment of arbitration centers in the region. Uzbekistan, Kazakhstan and Kyrgyzstan, which are the main leaders of the region, are at the forefront in this regard.

But in the Central Asian countries, which are relatively young and developing republics, there are many problems in this field as well as in other fields. For example, despite the fact that Kyrgyzstan is a member of the WTO, there was no significant growth in its economy. Kazakhstan also has a number of problems in this field. This article presents these and other issues and their detailed analysis.

**Key words:** International Arbitration, Arbitration Center, Central Asia, WTO, TIAC, KIAC, UNICITRAL, arbitration courts, main trends.

### Kirish.

Arbitraj xalqaro huquqiy maydonda tijorat hamda savdo-iqtisodiy masalalarni ham qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi davrda aksariyat

xalqaro nizolarning arbitrajda ko'rilish statistikasida katta qismini rivojlangan davlatlar hisobiga to'g'ri kelishiga qaramay, rivojlanayotgan davrlarda ham bu sohani rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro arbitraj sohasida o'zining geosiyosiy ahamiyati va iqtisodiy salohiyati bilan tobora ko'proq xalqaro hamjamiyat e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Bu mintaqa davlatlari, xususan O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va savdo aloqalarini mustahkamlash maqsadida arbitraj qonunchiligini takomillashtirishga intilishlarini ko'rishimiz mumkin.

Nega Markaziy Osiyo davlatlari uchun arbitraj kerak? Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni o'z ichiga olgan Markaziy Osiyoda xalqaro iqtisodiy faollik o'sib bormoqda. 2023-yilgi YeTTB prognoziga ko'ra, 2023-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti o'rtacha 5,2 foizga va 2024 yilda 5,4 foizga o'sish kutilishi haqida so'z yuritilgan[1]. Bu esa Markaziy Osiyoni iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mintaqalardan biriga aylanayotganidan dalolat beradi. Bu borada iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ular uchun yetarli huquqiy makon yarata olish katta rol o'ynaydi. Biroq, xalqaro bitimlar va ularning shartlari hamda taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomalarni ijtimoiy hayotga tadbiq etish jarayonlarida tomonlarni potensial nizolarga duchor bo'lishiga va ko'p hollarda o'zaro muzokaralarda hal bo'lmasligi mumkin. Bu esa muqobil hal qilish yo'llarini izlashga undaydi. Milliy sudlar orqali an'anaviy sud ishlarini yuritish ko'p vaqt talab qilishi, ma'muriy buyruqbozlikka duchor kelishlariga va ayrim holatlarda ishlarni ko'rishda taraflarga qimmatga tushishiga olib keladi. Bu ham yetmaganidek, milliy sudlar ikkisiga ham ma'qul kelmaydigan qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Ammo xalqaro arbitraj milliy sud tizimlari doirasidan tashqarida nizolarni hal qilish uchun neytral forumni ta'minlovchi jozibador muqobil taklif etadigan o'ziga xos nizolarni hal qilish vositasi bo'la oladi.

Markaziy Osiyo davlatlarining bu sohadagi asosiy e'tiborini dunyoning eng yetakchi xalqaro arbitraj markazlari qatorida Markaziy Osiyo arbitraj markazlarini ham e'tirof etish uchun qaratayotgani quvonarli, albatta. Bu sohada Markaziy Osiyo yetakchisi maqomi uchun O'zbekiston, Qozog'iston hamda Qirg'iziston ancha harakat qilmoqda. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning xalqaro arbitraj bo'yicha asosiy tendensiyalarini yuqorida keltirilgan uch davlat misolida ko'rib chiqamiz.

### **Qirg'iston.**

Markaziy Osiyoning bir qancha davlatlari xalqaro arbitrajni rivojlantirish uchun huquqiy islohotlarni amalga oshirdi. Ammo bu sohadagi anchagina yutuqlarga erishgan deb Qirg'izistonni keltirishimiz mumkin. Bunga sabab sifatida 1998-yilda Jahon Savdo Tashkilotiga qo'shilganligi[2] va xalqaro tijorat dunyosiga qadam qo'yganligi deya aytishimiz mumkin. JSTga a'zolik erkin bozorga chiqish yo'lidagi

katta qadam bo'lib, bu yo'lda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish uchun albatta arbitrajga murojaat qilinar edi. Bu esa arbitraj markazlarini tashkil qilinishiga olib keladi.

Eng avvalo, Qirg'ziston o'z qonunchiligini arbitraj uchun moslashtiradi. 1997-yilda xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Nyu-York konvensiyasiga(1958) a'zosi bo'ladi[3]. Undan tashqari, BMTning UNICITRAL namunaviy qonunlarini qabul qiladi. Bu ikki hujjat arbitrajning eng asosiy huquqiy hujjatlari bo'lib, dunyodagi 152 davlatning qarorlari ijrosini ta'minlash kafolatini berar edi. 2013-yil Qirg'izistonda arbitraj sohasida tom ma'noda evrilish sodir bo'lgan deyish mumkin. Shu yilda arbitraj bo'yicha asosiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Arbitraj markazi faoliyati kengaytiriladi. 2023-yilda esa hakamlik sudlariga soliq ishlarini ko'rish vakolati qo'shiladi. Ma'lumot uchun, 2004 yildan buyon Qirg'iziston Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Xalqaro hakamlik sudida umumiy summasi 80 mln. dollar bo'lgan 814 ta, shu jumladan 47 ta xorijiy kompaniyalar ishtirokidagi nizolar ko'rib chiqilgan[4].

### **Qozog'iston.**

Qozog'iston Markaziy Osiyo mintaqasida lider bo'lish uchun intilayotgan va amalda buni uddasidan chiqayotgan davlatdir. U juda katta iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'lib, mamlakat hududi va yalpi ichki mahsuloti bo'yicha mintaqada birinchi o'rinda turadi. Undan tashqari, 19yillik say harakatlardan so'ng 2015-yilda JSTga a'zo bo'ladi[5].

Qozog'iston hududi va iqtisodiy ko'rsatkichlarining yuqoriligi bilan bir qatorda Xalqaro arbitraj bo'yicha ham ancha ildam qadamlar tashlamoqda. 2016-yilda UNCITRALning "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi namunaviy qonuni asosida zamonaviy arbitraj qonunini qabul qiladi. Bu qonun asosida Qozog'iston xalqaro arbitraj markazi (KIAC) ko'plab xalqaro nizolarni ko'rib chiqadigan nufuzli muassasa sifatida paydo bo'ladi. Shu kungacha bu arbitraj markazi mintaqadagi tijorat nizolarini hal qilish uchun muqobil vosita sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Shunisi quvonarliki, Qozog'iston hukumati ham bunday markazlarni tashkil etishdan tashqari, xalqaro investitsiyaviy nizolarni hal qilishda ushbu markazlardan foydalanishni rag'batlantirmoqda. Xususan, 2021-yilning oxirlarida, Qozog'iston Prezidenti, xalqaro arbitraj haqidagi qonunosti hujjatini qabul qiladi.

Umuman olganda, Qozog'istonda xalqaro arbitraj uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Ostonadagi arbitraj markazi tashkil etilishi va zamonaviy arbitraj qoidalarining qabul qilinishi bilan Qozog'iston o'zini xalqaro arbitrajning mintaqaviy markazi sifatida ko'rsatish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni maqsad qilgan.

### **O'zbekiston.**

O'zbekiston mintaqqa liderlaridan biri bo'lib, qo'shnisi hisoblangan Qozog'iston bilan har sohada do'stona raqobatlashib keladi. Hududi kichkinaligi va tabiiy

resurslarining qo'shnilari Qozog'iston va Turkmanistonga nisbatan kamligiga qaramay mintaqada iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o'z o'rniga ega. Aholining ko'pligi, qonunchiligining anchayin keng qamrovliligi va mintaqadagi eng barqaror hokimiyatga egaligi bilan ajralib turadigan O'zbekiston Xalqaro maydonga ochilmoqda. Bu esa arbitraj sohasining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. O'zbekistonning mintaqa markazida joylashganligi va sifatli yuridik ta'lim mavjudligi ham xalqaro arbitraj bo'yicha mintaqa lideri bo'la olishini ko'rsatadi.

Maqola davomida O'zbekistonda Xalqaro arbitraj bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganib chiqamiz. O'zbekiston xalqaro arbitraj bo'yicha bir nechta xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qiladi, jumladan, bular qatoriga 1961-yilgi Tashqi savdo arbitraji bo'yicha Yevropa konvensiyasi[6], 1958-yilgi Chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Nyu-York konvensiyasi[7], 1965-yilgi Davlatlar va chet el shaxslari o'rtasidagi investitsiyaviy nizolarni hal qilish tartibi to'g'risidagi Vashington konvensiyasi[8] va UNCITRALning "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi namunaviy qonuni kabi xalqaro hujjatlar kiradi. Mamlakat bu bilan cheklanib qolmaydi. Mustaqilimizning dastabki bosqichida bu borada yetarli ishlar amalga oshirilmaydi. Ammo 2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning prezident etib saylanishi tufayli barcha sohada rivojlanish bo'lganidek, qonunchilik sohasida ham anchayin salmoqli ishlar bajarilishiga erishiladi. Bunda 2021-yil 16-fevralda kuchga kirgan "xalqaro arbitraj to'g'risidagi" O'RQ-674-son qonuni misol sifatida olishimiz mumkin. Bu qonunning qabul qilinishi orqali mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan arbitrajlarini faoliyatini tartibga solishni ko'zda tutilgan edi. Shunisi ajablanarliki, O'zbekistonda ham hakamlik sudi, ham arbitraj sudlari amalga o'z faoliyatini yuritadi. Hakamlik sudlari arbitrajga o'xshab ketadigan sud turi hisoblanadi. O'zbekistonda tashkil qilingan hakamlik sudlari 2006-yildagi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi qonun asosida faoliyat yuritadi.

Keyingi paytlarda hakamlik sudlariga e'tibor oshmoqda. Xususan, Samarqandda bo'lib o'tgan ilmiy amaliy seminarida hakamlik sudlarining faoliyati tahlil qilinganidan xabaringiz bor. Unda keltirilishicha, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari huzurida tashkil qilingan 15 ta hakamlik sudlari tomonidan 2007 yildan 2017 yilgacha(dastlabki 6 oyigacha) da'vo summasi 411,3 mlrd. so'm, 48,8 mln. AQSh dollari, 195,1 ming Yevroni tashkil qilgan jami 8689 ta ishlar ko'rilganligi va ular tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorlarining aksariyati (90 foizga yaqini) ixtiyoriy ijro qilinayotganligi qayd etildi[9]. Bu ham mamlakatdagi islohotlarning ishlayotganini ko'rsatadi.

Ma'lumot uchun, Hakamlik sudlari faoliyati rivojlangan davlatlarda fuqaro va xo'jalik sub'yektlari o'rtasidagi qarzdorlik nizolarining 80-85%i aynan hakamlik sudlarida ko'rilib, hal etilmoqda.

Keyingi islohotlarni ham keltirib o'tadigan bo'lsak, 2018-yilda Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) ning tashkil qilinishi ham arbitraj sohasida chinakam o'zgarish bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi[10].

Mening fikrimcha, Toshkent arbitraj markazining tashkil qilinishi munosabati bilan Toshkent mintaqaning arbitraj sohasida markaziga aylandi. Chunki poytaxtimiz mintaqadagi eng ko'p aholiga ega shahar bo'lib, hozirda 3mlnga yaqin aholi istiqomat qiladi[11]. Geologik va logistika jihatdan ham mintaqa markazida joylashgan. Bu esa mintaqa tadbirkorlari boshqa mintaqalarga borib katta miqdordagi moliyaviy xarajat qilmasdan chet el firmalari bilan bo'ladigan nizolarni Toshkentda hal qilish imkoniyatini beradi. Toshkent xalqaro arbitraj markazi direktori Diana Bayzakovanning Kun.uzga intervyu beradi[12]. Uning so'zlariga ko'ra, bugungacha markazga 50 dan ortiq arizalar tushgan bo'lib, ular orasida Italiya, Niderlandiya, Singapur, Gonkong, Malayziya, Turkiya, Qozog'iston, Rossiyadan murojaatlar bo'lgan.

Yuqorida uch davlatning arbitraj bo'yicha harakatlari va asosiy e'tibori qaratilgan o'rinlarini ko'rib chiqdik. Shuni keltirib o'tish lozimki, har uchala davlatda ham

Ijobiy tendentsiyalarga qaramay, muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa Markaziy Osiyoning arbitraj markazlariga investitsion murojaatlarni sezilarli darajada qisqarishiga olib kelishi mumkin. Birinchidan, ushbu mamlakatlardagi hokimiyat organlarida korrupsiya va ma'muriy buyruqbozlik sezilarli darajadga yetgan. Misol uchun, O'zbekiston Transparency International xalqaro tashkilotining korrupsiyaga qarshi reytingida 180 mamlakat va hududlar orasida 158-o'rinni egalladi[13]. Ushbu reytingda Qozog'iston 31 ball bilan 124-o'rinni va Qirg'iziston esa 29-ball bilan 132-o'rinni egallagan. Bu esa kelayotgan investorlarning mamlakatdagi arbitraj markazlari va hakamlik sudlariga ishonchsizligini oshiradi. Ikkinchidan, mintaqadagi qonunchilik tizimi zamon talablariga moslashtirilishi zarur. Bu borada O'zbekistonda ishlar olib borilishiga qaramay yetarli maqsadga erishilmagan. Misol tariqasida, mamlakatlarning milliy sud tizimida arbitraj hujjatlarini tan olish masalasi mufassal yoritilmagan. Xalqaro arbitrajni tartibga soladigan qonun va qonunosti hujjatlari bir qancha kamchiliklar mavjud. Uchinchidan, milliy sud tizimlarining adolatli qarorlar chiqarishi shubha ostida qolmoqda. O'zbekiston xalqaro Meros jamg'armasi (The Heritage Foundation) tomonidan yuritiladigan Iqtisodiy erkinlik indeksining (Index of Economic Freedom) 2021 yildagi reytingida 58,3 ball to'plab 108-o'rinda qayd etgan[14]. Unda keltirilishicha, mamlakatning sud tizimi mustaqil bo'lishiga qaramay, unga hukumatning aralashuvi hamda korrupsiya borligi ishonchni kamaytiradi. To'rtinchidan, mintaqadagi arbitraj markazlarida tajriba kamligi va murakkab muommolarni hal qilishni qiyinlashtiradi. Bu ham arbitrajga murojaat qilishda xorijiy investorlarni ishonchini kamaytiradi.

**Xulosa qilib aytadigan bo'lsak**, Markaziy Osiyo yurisdiksiyalari xalqaro arbitraj sohasida sezilarli o'sishni boshdan kechirmoqda. Qozog'iston va O'zbekiston kabi davlatlar, xalqaro arbitraj qonunchiligini takomillashtirish orqali, mintaqaviy va global miqyosda raqobatbardoshlikni oshirishga intilmoqdalar. Bu bir tomondan, qonunchilikdagi islohotlar, institutsional rivojlanish, nizolarni hal qilish uchun hakamlik sudiga murojaat qilishning ko'payishi ijobiy belgilardir. Qolgan muammolarni hal qilish va hakamlik madaniyatini yuksaltirish orqali Markaziy Osiyo xalqaro savdo va investitsiyalar uchun qulay manzil sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlashi mumkin. Shunga qaramay amalga oshirish kerak bo'lgan talaygina ishlar turibdi. Maqolada arbitraj bo'yicha bir qancha muommolarni sanab o'tdik. Xalqaro hamjamiyat ham investorlarning fikrlari ham arbitrajdagi muommolar talaygina ekanini ko'rsatadi. Ushbu muommolarni hal qilish uchun bir qancha takliflarni keltirib o'tamiz. Birinchidan, mintaqa mamlakatlari eski sotsiolistik davrdan qolgan qonunchilik tizimini shuningdek, arbitraj sohasidagi qonunlarini takomillashtirishi zarur. Bunga qonunchilikka arbitraj tashkil qilish va ularni tartibsiz olishning yangicha va innovatsion tizimlarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, mintaqa mamlakatlarida keng ildiz otgan korrupsiyani yo'qotish choralari ko'rish kerak. Bunda eng avvalo sud tizimidagi korrupsiyani yuqotish kerak. Bunga avvalo, davlat xizmatchilarining oylik maoshlari ko'paytirilishi lozim. Mamlakatda yagona korrupsiyaga kurashish bo'yicha organ tuzilib, uning vakolatlariga barcha organlarni tekshira olish, korrupsiyaviy holatlar bo'yicha jinoyat ishlarini yuritish kabilarni qo'shish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, Xorijiy yuridik xizmatlar va arbitrlarni mintaqa davlatlarida faoliyat yuritish uchun soliq va boshqa imtiyozlarini shuningdek, viza tizimi soddalashtirilishini joriy qilish kerak. Bunga o'xshash tajriba Singapur davlatida ham qo'llanilgan bo'lib, yaxshi samara bergan[15]. To'rtinchidan, mintaqa mamlakatlarida sifatli yuridik ta'limni joriy qilinishi kerak. Yuridik sohada ta'lim oluvchi yoshlar dunyoning eng ilg'or davlatlarida malaka oshirib kelishlari zarur. Bu borada davlat tomonidan subsidiyalar ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1] – The official website: European bank for Reconstruction and Development, Available at: <https://www.ebrd.com/news/2023/central-asia-remains-resilient-to-geopolitical-headwinds.html> [accessed on:16.05.2023]
- [2] – The official website: <https://www.cairn.info/revue-l-europe-en-formation-2018-1-page-104.htm> [accessed on:04.12.2018]
- [3] va [4] – The official website: <https://www.mediator.uz/jangiliklar/125-markaziy-osiyoda-hakamlik-arbitraji-institutining-rivojlanish-istiqbollari.html> [accessed on: 09.10.2023]

